

O'zbek va ingliz tillarida “mehnat” konseptining maqollarda ifodalanishi va ularning tahlili

Ruzimuratova Nilufar Ruzimurot qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida ishlatiladigan “mehnat” konseptini ifodalovchi maqollar ifodalangan. Yana shuni guvohi bo'lishimiz mumkinki, ba'zi maqollarni ishlatilish qoidalar va ifodalanishi, ularning farqli va o'xshash taraflari keltiriladi. “Mehnat” konseptini ifoda etishda qo'llaniladigan turli leksik birliklar, maqollar, masallar va aforizmlar haqida umumiy ma'lumot beriladi va ayrim misollar tahlil qilinadi. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi paremiologik misollar orqali til harakatida nisbatan faol bo'lgan ushbu ikki tildagi maqollarni topib, o'zaro bog'lagan holda mazkur tillardagi “mehnat” konseptini lisoniy tahlil etishga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: Mehnat, kognitiv tilshunoslik, konsept, mehnat, mehnatkashlik, frazeologik birliklar, maqol, hikmatli so'zlar, paremiologik birliklar, mehnat, madaniyat, konsept, ekvivalent, ekspressivlik, semantika, mutanosiblik.

Maqollarning ma'nolar doirasi juda ko'p bo'lib biz uni jamiyatimiz har bir jabhasida ko'rishimiz mumkin. Aynan maqollarni ma'no jihatdan qo'llanilishiga keladigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillarida ularning qo'llanilishi ko'p uchraydi. Mehnat qilish va mehnatsevar inson bo'lish kabi masalalarga ingliz va o'zbek xalqi tomonidan jiddiy qaralishi o'zbek va ingliz maqollarida o'z aksini topadi. Aynan shu mavzudagi maqollarni tahlil qilish jarayonida, shu narsani guvohi bo'lishimiz mumkinki, hamisha mehnat qilish ijobiy baholanganligini, dangasalik va ishyoqmaslik esa qattiq qoralanishi kabi masalalarning yoritilishini kuzatamiz. Xuddi shu fikrlar isbotini quydagi maqollar misolida ko'rishimiz mumkin. The labourer is worthy, of his

hire. (Ishlab topganning — osh, Ishlamay topganing — tosh), Work shall not eat, He that will not. (Ishlamagan — tishlamas, Ishyoqmasga kun kulmas). Ingliz va o'zbek tillarida “mehnat” konseptini ifodalovchi maqollarning mavjudligi shuni anglatadiki, ikki millat vakillari ham mehnatsevar va ishchan ekanligini anglatadi.

Shu o'rinda maqolalarning qo'llanilishi va ma'nosi yaqinlik darajalari shuni anglatadiki, maqollarning qo'llash uslubi aynan bir xil ekanligini tushuna olamiz. Shu jumladan, ingliz va o'zbek tilidagi “mehnat” konseptiga oid maqollar salmoqli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shu narsa ma'lumki, har qanday yutuqning zamirida qattiq mehnat, tirishqoqlik yotadi. Har bir mashaqatli ishning yechimi tinmay mehnat qilish, o'z ehtiyojlarini qoplash nafaqat qadim zamonlarda, balki bugungi kunda ham o'z muhimlik darajasini yo'qotmagan. Dangasalik, ishyoqmaslik har doim qoralanib kelgan. Bunday masalalarga ingliz va o'zbek xalqi tomonidan jiddiy qaralishi maqollarda o'z aksini topadi. Ulardan ayrimlarining tahliliga nazar solamiz. “All is over but (but) the shouting”. Agar biz bu maqolni so'zma so'z tarjima qilsak, bari ortda qoldi, vaqt shodlikka yetdi. Agar biz ushbu maqolning o'zbek tilidagi ekvivalentini quydagicha berishimiz mumkin: “mehnat qancha og'ir bo'lsa, keti shuncha shirin bo'ladi”. Yoki bu maqolning o'zgacha variantini ham berish mumkin, ya'ni mehnat, mehnatning tagi- rohat”. Mehnat haqidagi berilgan maqollarni ko'rib chiqar ekanmiz shu narsa ma'lum bo'ladiki, mehnat odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik, o'z-o'zidan qanoat tuyg'usini olib kirib, uni baxtiyor qiladi. I.Gyote aytganidek, mehnat qilgan va sabr qilgan kishiga chin baxtiyorlik oshno bo'ladi.

Quyida yana bir maqolning ifodalanishini ikki tilda ko'rib chiqamiz. Ingliz tilidagi quydagi maqolni ko'radigan bo'lsak, “doing is better than saying”. Ushbu maqolning so'zma-so'z tarjimasiga qaraydigan bo'lsak, Gapirgandan qilgan yaxshi. Buning o'zbek tilidagi chiroyli tarjimasiga qaraydigan bo'lsak: “Gap bilguncha ish bil”. Mazkur maqollarda ishni gapirib emas, balki bajarib ko'rsatish yaxshiroq ekanligiga urg'u berilmoqda. Yoki yana bir boshqa o'zbek tilidagi quydagi maqol ham yuqorida berilgan

maqolning ekvivalenti bo'la oladi: “So‘zda bor, amalda yo‘q” qabilida qolib ketmaslikka chaqirilmoqda.

Yana ingliz tilidagi boshqa maqollardan biri bu: “business before pleasure”. Bu maqolning so‘zma so‘z tarjimasiga qaraydigan bo‘lsak, “hordiqdan oldin mehnat”. O‘zbek tilidagi boshqa ekvivalenti quydagi maqol orqali ifodalanishi mumkin: “mehnat, mehnatning tagi – rohat”. Bu maqol orqali biz shuni tushunishimiz mumkinki, har doim mehnat qilishlik, mashshaqtlarni kuchli mehnat qilish orqali yengib o‘ta olishlik berilgan.

Ingliz va o‘zbek maqollaridagi bir qancha o‘xshashliklarga qaramay, mehnatga oid maqollarda farqlarni ham uchratishimiz mumkin. Ingliz maqollari, asosan, ishning amaliy va moddiy jihatlariga, masalan, unumdorlik va samaradorlikka qaratilgan. O‘zbek maqollarida esa har bir mehnat orqali qilingan ish totli bo‘lishi va qadrlanish g‘oyalari ilgari suriladi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, “mehnat” konsepti mavzusiga oid ingliz va o‘zbek maqollari mehnatsevarlik, qat’iyatning ahamiyati jihatidan o‘xshash taraflarga ega va bu maqollarda mehnatsevarlik juda yuqori baholanadi. Bu jarayonni o‘rganish orqali maqollarda aks etgan madaniy qadriyatlar va e’tiqodlarni chuqurroq anglab, ularni hayotimizga tatbiq etishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva N. “Maqol va hikmatli so‘zlarning paremiologik maydoni” maqolasi.
2. Burxonov G. “Ish” konseptlik ingliz va o‘zbek maqollarining o‘xshash va farqli jihatlar” maqolasi.
3. Akhtamova F.U. Phraseological expressions in the modern English language and their derivative features // Экономика и социум. 2022. №3-2 (94).

4. Karamatova K, Karamatov H. PROVERBS - MAQOLLAR - ПОСЛОВИЦЫ. “Mehnat” nashriyoti.-Toshkent.2000
5. Kurbanova M, Yo‘ldashev M. Matn tilshunosligi.-Toshkent:Universitet. 2014
6. <https://www.proverbs.com>
7. <https://www.ziyouz.com>